

**BANKLAR FAOLIYATIDAGI VALYUTA RISKLARNI BOSHQARISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

*Toxtamatov Javlonbek Qodirjon o`g`li
Toshkent shahar, Bektemir tumani
Bank va moliya akademiyasi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur tezisda bank risklarini doimiy ravishda monitoring qilish va xavflilik darajasi to‘g‘risida oldindan ogohlantirishga imkon beradigan ko‘rsatkichlar to‘plami, ma’lum bir ssenariy bo‘yicha belgilangan ahamiyatlilik me’yordan oshib, bank nufuziga jiddiy zarar yetkazadigan yoki bank strategiyasini o‘z vaqtida amalga oshirishga to‘sinq bo‘ladigan bank uchun yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan risk turlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: risklar, risk appetiti, risk profili, risk-appetiti ko‘rsatkichlari, bankning biznes maqsadlari.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishi sifatida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash [1] belgilanganligi banklarda risklarni boshqarishning xalqaro tajribalarini o‘rganish xususan banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lagan risklarga bardoshlilik darajalarini hisobga olgan holda asosiy risk ko‘rsatkichlari limitlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha tarkibiy tuzilma tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, shu jumladan, risk-appetit va tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatining ishlab chiqilishi, ularga rioya etilishi va ularning o‘z vaqtida yangilab borilishi ustidan nazorat qilish[2] belgilanganligi banklarda risk-appetiti ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni boshqirish bo‘yicha bank o‘zining ichki me’yoriy xujjatlari ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Aynan risk appetitining to‘g‘ri aniqlanishi ko‘pgina banklarga global moliyaviy beqarorlik davrida bankrotlikdan qochishga imkon beradi. Risk appetiti darajasini aniqlab, har bir bank risklarni boshqarish sohasida ishlashning o‘ziga xos strategiyasini ishlab chiqadi.

Risk appetitini samarali boshqarish ham Regulyatorning majburiy me’yoriy talablarni buzish riskini kamaytiradi, ayniqsa banklarni tartibga solishning yangi standartiga o‘tish sharoitida - Bazel 4 [3].

Xalqaro standart shuni ko'rsatadiki, har xil maqsadlar har xil darajadagi xavfni anglatadi, shuning uchun har bir tashkilot o'z faoliyati davomida qancha va qanday turdag'i tavakkal qilishga tayyorligini o'zi uchun shakllantirishi kerak. [4]

Ushbu holatlarda banklarda risklarni tahlil qilish va baholash, oldini olish va boshqarish maqsadida har bir bank risk appetiti va risk profilini ishlab chiqishnuqtai nazardan nazariy va amaliy ahamiyati yuzasidan ilmiy izlanishlarni olib borishni talab etadi.

Bankda risklarni boshqarishning maqsadi qonunchilik talablariga, bank aksiyadorlari va investorlarning kutgan talablariga muvofiq, risklarni ongli ravishda qabul qilish va bank faoliyati davomida yuzaga keladigan risklarni bartaraf etish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish sifatida belgilanadi.

Bankning biznes yo'naliishlari bo'limlari operatsiya turlari bo'yicha risk-appetitining eng yuqori ko'rsatkichlarini belgilaydi. Yirik bitimlar va yangi operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin, risk-profilining ko'rsatkichlar monitoringi va shunga mos ravishda bankning risk-appetiti ko'rsatkichlariga muvofiqligi har oyda yoki zarur hollarda tez-tez amalga oshiriladi. Buzilishlar aniqlangan taqdirda bank tomonidan risk darajasini kamaytirish to'g'risida qarorqabul qilinadi.

1-jadval

Bankning risk-appetitini boshqarish chora-tadbirlari

No	Bosqich	Jarayon natijasi
Risk-appetiti ko'rsatkichlarini aniqlash		
1	Risk dinamikasining oxirgi 3-12 oydag'i hozirgi ta'sirini baholash.	Risk haqida muntazam hisobot
2	Bankning biznes rejasi va strategiyasi ma'lumot-lari asosida risklarni oldindan aniqlash	Asosiy risk ko'rsatkichlari prognozi
3	Belgilangan mezonlar bo'yicha hozirgi va kelgusi davrlardagi muhim risklar ro'yxatini shakllantirish	Bankning muhim risklar ro'yxati
4	Bank faoliyatidagi cheklovlarini baholash (me'yorlar va kovenantlarni riskka chidamliligi)	Tashqi va ichki risk cheklovlarini qabul qilish ro'yxati
5	Barcha ma'lumotlarni taqqoslash orqali risk-appetitini aniqlash	Risk-appetiti ko'rsatkichlari ilovalari
	Risklarni kamaytirish uchun qarorlar qabul qilish	

1	Bank rahbariyati tomonidan qaror qabul qilish uchun risklarni kamaytirish bo'yicha takliflarni shakllantirish	Risklarni to'g'risidaxulosa kamaytirish
2	Bankning tegishli qo'mitalari tomonidan risklar-ni kamaytirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish	Qo'mita majlis bayonlari
3	Bankning tegishli qo'mitalari tomonidan risk-profilni ko'rsatkichlarini kamaytirish bo'yicha qarorlarni tasdiqlash	Qo'mita majlis bayonlari
4	Bank rahbaryatining qarorlariga muvofiq risklarni kamaytirish bo'yicha qarorlarini bajarish	Bank rahbaryatini qarorlarni bajarish bo'yicha hisobot
5	Qarorlar va qo'shimcha tadbirlarni bajarilishini nazorat qilish	Qo'mita majlis bayonlari

Risk-profillarini erta aniqlash va risk-profillarini risk-appetiti ko'rsatkichlariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida Bank doimiy ravishda risk darajasi va dinamikasini tahlil qilishi uchun risk-profilining ko'rsatkichlaridan foydalanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bankning yuqori darajali rahbarlari va xodimlari risklarni boshqarishning maqsad va vazifalariga qat'iy rioya qilish, Bank tomonidan qabul qilingan qadriyatlar va axloqiy me'yordarga amal qilishi shart. Bank Boshqaruvi va yuqori rahbarlar risklarni to'g'ri boshqarish va Bankda risklarni boshqarish tizimini izchil rivojlantirish uchun asosiy mas'ullikni o'z zimmalariga olish lozim.

Risk-appetining me'yordariga rioya etilishini ko'p bosqichli boshqarish tizimidan foydalangan holda doimiy monitoring qilib, Risklarni qabul qilish jarayonida barcha tarkibiy bo'linmalar tomonidan operatsion nazorat qilib borish, nazorat risklarni boshqarishda bankning tavakkalchiliklarni boshqarish bo'linmasi va bankning ichki nazorat bo'limlari tomonidan joriy nazoratni amalga oshirish, Bank strategiyasini amalga oshirilishini va tasdiqlangan audit rejasi doirasida Ichki audit xizmati tomonidan nazoratni amalga oshirish lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan o'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-sonli Farmoni 2020 yil 12 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi 3254-sonli nizom. 2020 yil 30 iyun.
- Pashkovskaya I.V., Xotkin A.V. Tijorat bankini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risk appetite ahamiyati // Iqtisodiyot: kecha, bugun, ertaga. 2020. 10-jild.

№ 3A. 57-64-betlar. DOI: 10.34670/AR.2020.94.4.007

4. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). МЕHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIROLNARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.
5. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ИЖТИМОЙӢ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ШАХСЛАР УЧУН ИШ ЎРИНЛАРИНИ ЙӮНАЛИШЛАР КЕСИМИДА ЗАХИРАЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78
6. <https://annualreport>.
7. www.ziyonet.uz